

ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA SODIR BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA KASB KASALLIKLARIGA OID STATISTIK MA'LUMOTLAR TAHLILI

Turakulova Gulasal Zohidjon qizi
Andijon davlat texnika instituti,

gulasa22@gmail.com

Annotatsiya. Zamonaviy sanoat tarmoqlarida ekologik xavfsizlik va mehnat muhofazasi muammolari jahon miqyosida muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. O'zbekiston sanoati ham izchil rivojlanib, ishlab chiqarish hajmlari ortib borayotgani sababli, ishchi-xodimlarning salomatligini muhofaza qilish, zararli moddalarning salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Bu tadqiqot nafaqat mehnat muhofazasi sohasida, balki ekologik nazorat va sanitariya gigiyena tadbirlarini takomillashtirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan statistik hisobotga asoslangan so'nggi yillarda sodir bo'lgan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar monitoringi natijalari tahlil asosida ma'lum bir aniq davr davomida yuz bergan baxtsiz hodisalarning umumiy sonining ushbu qarab chiqilayotgan davrda olamdan o'tish bilan yakunlangan baxtsiz hodisalarning soniga nisbatini ifodalovchi, alohida ahamiyatga ega kasb kasalliklari ko'rsatkichni xalqaro miqyosdagi qiymatlari bilan taqqoslash va uni xaqqoniyligini ta'minlash uchun zarur tavsiyalar ishlab chiqish.

Usullari. Dunyoning yetakchi davlatlari miqyosida baxtsiz hodisalarning holati va uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash maqsadida barcha jarohatlanishlar va qayd qilish, tekshirish, hisobga olish va statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.


Natijalari. Olib borilgan tadqiqotlar natijalar shuni ko'rsatdiki, Rossiya va O'zbekiston miqyosida ishlab chiqarishda yuz beruvchi jarohatlanishlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni ishonarli deb hisoblash mumkin emas, chunki bunda kasb kasalliklari ko'rsatkich qiymati 1 ga intiluvchi tavsifga ega hisoblanadi. Yakuniy holatda qayd qilib o'tish kerakki, baxtsiz hodisalarning berkitilishi masalasi ancha oldindan mavjud hisoblanadi.

Kalit so'zlar: mehnat muhofazasi, mehnat muhofazasini boshqarish, jamoatchilik nazorati, baxtsiz hodisalar, ijtimoiy sug'urtalash, jarohatlanishlar

Kirish. Mehnat muhofazasi talablarini barcha korxonalarda bajarilishini ta'minlash yuzasidan olib boriladigan nazorat turlari uslubiyati ishlab chiqilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor davlat va ma'muriy jamoatchilik nazorati o'tkazish uslubiyati va tartibiga urg'u berilgan. Ma'lumki, mehnat muhofazasi mehnat jarayonida insonning xavfsizligi, sog'ligi va hayoti hamda faoliyatini tiklashga qaratilgan tadbirlar (huquqiy,

ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigienik, davolash profilaktika, reabilitasiya) tizimi va vositalaridan iborat bo'lib, ularni amalga oshirishda inson uch qiyofada ishtirok etadi.

Mehnat muhofazasida inson ishtiroki Insonlar himoya ob'ekti, insonlar xavf manbai va insonlar himoyani tashkil etishni boshqaradi. Ya'ni insonlar jamoasi yoki har bir insonni o'zi mehnat muhofazasi jarayonida uch qiyofada ishtirok etadi. Qaysi qiyofada ishtirok etishidan qat'iy nazar, barchasida insonlar ishtiroki muqarrar sanaladi. Mehnat muhofazasini tashkil etish va boshqarishda muhim bo'g'in sanalgan nazoratda ham jamoatchilikning ishtiroki, nazorat samaradorligini keskin oshishiga xizmat qiladi. Ma'lumki, mehnat muhofazasini boshqarish elementlar zanjiridan iborat (2-rasm). Mehnat muhofazasini boshqarishda xavfsizlik talablariga rioya etilishi yuzasidan himoya ob'ekti nazorati o'tkaziladi, nazorat natijalari qonunlar, nizomlar, sanitariya-gigienik talablar, qoidalar, standartlar normalari bilan solishtiriladi, normalardan chetga chiqishlar, qoidabuzarliklar bartaraf etiladi, ya'ni rostlanadi va yana ob'ektni xavfsizlik talablari bajarilayotgani nazorat qilinadi. Ushbu zanjir ish joyi, bo'lim, sex, korxona, tarmoq, vazirlik, soha, davlat tashkilotlarida amalga oshirilishi mumkin. Mehnat muhofazasini boshqarish zanjirining elementlarini eng muhimi nazorat sanaladi.



2-rasm. Boshqarish elementlari zanjiri.

Nazorat natijalarini ishonchliligi, birinchidan, ob'ektni xavfsizligi yoki xavflar maydoni ekanligini aniqlash imkonini yaratadi, ikkinchidan, olingan yoki qayd etilgan ma'lumotni, ishdan olingan natijani ishonchli ekanligini ko'rsatadi, uchinchidan, amalga oshirish lozim bo'lgan rostlovchi tadbir qo'llashini, sifatini, sonini harakatlarini aniq va rasional qabul qilinishini ta'minlaydi. Shuning uchun ishlab chiqilgan jamoatchilik nazorati uslubiyati yoki uni takomillashtirish, ular ishlab

chiqarishdagi baxtsiz hodisalar bo'yicha aniq va haqqoniy hamda yuqori darajada ishonchli ma'lumot olish imkonini ta'minlashga xizmat qilishi kerak.

Usullari. O'zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan so'nggi yillarda, statistik hisobotga asoslangan, ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar monitoringi natijalari tahlil qilindi. Bunda asosiy e'tibor monitoring natijalari jamoatchilik nazoratini zamon va rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi holatga mosligini baholashga qaratildi. Kasaba uyushmalariga a'zo korxona, tashkilot va muassasalarda 2021 yilda aniqlangan ishlab chiqarish bilan bog'liq baxtsiz hodisalar jami 203 tani tashkil etgan, ulardan 59 tasi oqibati o'lim bilan tugagan, 113 tasi oqibati og'ir hamda 31 tasi oqibati engil baxtsiz hodisalar bo'lib, shulardan 19 tasi guruhiyni tashkil etgan [3]

Baxtsiz hodisalarni deyarli barchasi og'ir yoki o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar ekanligi qayd etilgan. Yuz bergan baxtsiz hodisalarni ob'ektiv tahlil qilish kelajakda bunday xavflarning yuz berishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun ishonchli axborotlarni olish imkonini beradi. Dunyoning etakchi davlatlari miqyosida baxtsiz hodisalarning holati va uni keltirib chiqaruvchi sabablarni aniqlash maqsadida barcha jarohatlanishlar va qayd qilish, tekshirish, hisobga olish va tahlil qilish sinchiklab amalga oshiriladi. Xatto, shikastlanishga olib kelmaydigan, ya'ni "deyarli baxtsiz hodisa hisoblanmaydi" deb nomlash mumkin bo'lgan vaziyatlar ham o'rganilishi haqida ma'lumotlar mavjud. Xalqaro amaliyotda ma'lum bir aniq davr davomida yuz bergan baxtsiz hodisalarning umumiy sonining (BX) ushbu qarab chiqilayotgan davrda olamdan o'tish bilan yakunlangan baxtsiz hodisalarning soniga nisbatini ifodalovchi, alohida ahamiyatga ega ko'rsatkichdan ham foydalaniladi, ya'ni: Amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalarini ko'rsatishicha, ushbu ko'rsatkich baxtsiz hodisalarning ob'ektiv qayd qilinishi sharoitlarida barqaror qiymatga ega bo'lishi kuzatiladi.

Muhokamalar. Professor V. M. Minko tomonidan nashr qilingan monografiyada [1] ayrim davlatlarda ushbu KO ko'rsatkichning qiymatlari keltirilgan: jumladan, Germaniyada – 1347 (2005 yil ma'lumotlari bo'yicha); Fransiyada – 1019 (2003 yil ma'lumotlari bo'yicha); Finlyandiyada – 1019; AQShda – 933; Ispaniyada – 927 (2004 yil ma'lumotlari bo'yicha). Xalqaro mehnat tashkiloti mutaxassisleri tomonidan amalga oshirilgan baholashlar bo'yicha, Evropa davlatlari uchun ushbu ko'rsatkichning o'rtacha qiymati $KO=750$ ni tashkil qiladi [2]. Ishlab chiqarish bilan bog'liq baxtsiz hodisalarning tahlillari ko'plab olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan.

Jumladan, Rossiya federatsiyasidagi olimlar tadqiqotlari asosida baxtsiz hodisalarni ro'yxatga olish, tahlil etish, quyida qayd etilgan tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin [3]:

1. Mehnat va bandlik bo'yicha (Rossiya mehnat) Federal xizmat idorasi tomonidan guruhlar bo'yicha, og'irlik darajasi va olamdan o'tishga olib keluvchi baxtsiz hodisalar bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi;

2. Ijtimoiy sug'urtalash fondi (ISF) tomonidan majburiy ijtimoiy sug'urtalash bo'yicha sug'urtalangan jabrlanuvchilar haqidagi axborotlar to'planishi amalga oshiriladi;


3. Davlat statistika federal xizmati (Rosstat) idorasi tomonidan cheklangan sondagi tashkilotlar bo'yicha baxtsiz hodisalarni tanlash asosida hisobga olish amalga oshiriladi;

4. Federal tibbiy-biologik agentlik (FTBA) tomonidan mehnat sharoitlari alohida darajada xavfli hisoblangan ayrim tashkilotlarda baxtsiz hodisalar hisobga olinishi amalga oshiriladi;

5. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va odamning farovonligi sohasida nazorat bo'yicha federal xizmati idorasi tomonidan kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan kasalliklar bo'yicha ma'lumotlar to'planishi va tahlil qilinishi amalga oshiriladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra amalga oshirilgan hisoblashlar ma'lumotlari bo'yicha davlatlar (turli yillarda) uchun baxtsiz hodisalar ko'rsatkichi qiymatlarda quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Davlat	1990	2000	2010	2020	2024
Rossiya	411	287	302	276	307
AQSH	420	223	266	300	204
Xitoy	376	289	278	265	233
Yaponiya	167	120	89	113	89
O'zbekiston	560	486	345	512	347

Shunday qilib, davlatlar o'rtasida ko'rsatkich qiymatlarining ushbu ko'rinishdagi o'zgarish tavsifiga egaligi yengil tarzda baxtsiz hodisalarning to'liq holatda hisobga olinmasligi (berkitilishi) haqida dalolat beradi (6-rasm).



6-rasm. Umumiy baxtsiz hodisalar sonini o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar soniga nisbati

Shunday qilib, turli davlatlar miqyosida ishlab chiqarishda yuz beruvchi jarohatlanishlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni ishonarli deb hisoblash mumkin emas, chunki bunda KO ko'rsatgich qiymati 1 ga intiluvchi tavsifga ega hisoblanadi. Yakuniy holatda qayd qilib o'tish kerakki, baxtsiz hodisalarning berkitilishi masalasi ancha oldindan mavjud hisoblanadi. Professor P. I. Mustel tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda bu haqida ayrim fikrlar bildirib o'tilgan bo'lib, jumladan, baxtsiz hodisalarni tekshirish polisiyaga topshirilgan sharoitlardagina baxtsiz hodisalar haqidagi ma'lumotlar ishonarli hisoblanishi mumkinligi ko'rsatib o'tilgan [5].

Xulosalar.

Baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklarini hisobga olish ishonchli bo'lishi uchun, qonunchilik qonun osti hujjatlari tartibiga quyidagi me'yorlar kiritilishi lozim, jumladan:

1. Davlat, tarmoq, soha, tashkilotlar kesimida ijtimoiy hamkorlikni qonuniy asoslarini va jamoatchilik nazorati uslubiyatini aniq mexanizmini ishlab chiqish va takomillashtirish.

2. Ishlab chiqarishda salomatlik, inson hayoti va ish qobiliyatiga salbiy ta'sir etuvchi har qanday xavfli (shikastlovchi va zararli) omil haqidagi dalillar bo'yicha jabrlanuvchi sug'urtalash organlariga belgilangan tartibda mustaqil holatda xabar berishi.

3. Baxtsiz hodisalarni tekshirish bo'yicha komissiya tarkibiga jabrlanuvchi yoki uning vakilini kiritish.

4. Baxtsiz hodisalarni tekshirish, rasmiylashtirish va hisobga olishni ichki ishlar organlari xizmati tomonidan amalga oshirish.

5. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari haqidagi ma'lumotlarni tibbiyot muassasalari tomonidan alohida qayd etilishi va kasallik varaqalarida ko'rsatish. Baxtsiz hodisaga uchragan va kasb kasalligiga chalingan xodimlarni ularni tekshirmasdan, rasmiylashtirmasdan va qayd etmasdan ularni boshqa lavozim yoki kasbga o'tkazib yuborishni man etilishi.

Adabiyotlar

1. Minko V.M. Razvitie upravleniya oxranoy truda v Rossii: monografiya // Kaliningrad: FGBOU VPO «KGTU», 2015. – 191 s.
2. KR-09/177.13.02.2023 yildagi O'zbekiston Kasaba Uyushmalari Federasiyasining mehnat muhofazasiga oid tahliliy axborot xati ma'lumotlari.
3. Oxrana truda. MOT: Nasionalnie sistemi oxrani truda. [https://www.ilo.org/moscow/areas-of-work/occupational-safety-and health/WCMS_249273/lang--ru/index.htm](https://www.ilo.org/moscow/areas-of-work/occupational-safety-and-health/WCMS_249273/lang--ru/index.htm)
4. Turakulova G.Z “Ishlab chiqarish korxonalarida havfsiz mehnatni sharoitlarini o'rganish va tavsiyalar ishlab chiqish” Xalqaro ilmiy-amaliy Anjuman materilalar to'plami.:And 2022. 401-403b/
5. Turakulova G.Z “ORGANIZING A SYSTEM OF SAFE WORK IN INDUSTRIAL ENTERPRISES, ORGANIZING A MANAGEMENT SYSTEM” NamTSI Maxsus son Nam. 2024.285-289b